

SYNTACTIC DERIVATION AND ITS LINGUISTIC DESCRIPTION

Khairullayev Khurshidjon Zayniyevich

(Professor of SamDChTI, Doctor of Philology)

Ruziyeva Maftuna Diyor qizi

(Master's student of Navoi State Pedagogical Institute)

ANNOTATION

This article is devoted to the theory of syntactic derivation and its description, which is studied in linguistics. In addition, this article presents the scientific and theoretical views of the world, mainly Russian and Uzbek linguists, on the theory of syntactic derivation and the teachings of experts who have worked on this theory.

Keywords: derivation process, syntactic derivation, derivatology, derivative, operator, operand, semantic derivation, lexical derivation, transposition, transformation, syntagmatic, paradigmatic, contamination, conversion, compression

INTRODUCTION

Tilshunoslik fani taraqqiyotining hozirgi fazasida til materialining struktur-sistem tahlili dolzarb muammolardan bir ekanligi hech kimga sir emas. Jahon tilshunosligida til taraqqiyotining bugungi kunga qadar struktur tilshunoslik muammolari bo'lmish distributiv tahlil, transformatsion tahlil, til materialining funksional tahlili, sintaktik, leksik va semantik derivatsiya talqini, psixolingvistika, neyrolingvistika masalalarining tadqiq etilishi yuzasidan ko'plab yutuqlarga erishildi. Biroq mazkur masalalar talqini o'zbek tilshunosligida hali tom ma'noda o'z yechimini topgani yo'q. Bu birinchi navbatda fan va texnika taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq bo'lib, dunyo tilshunosligida erishilgan yutuqlardan foydalangan holda o'zbek tilshunosligida eng avval derivatsiya masalalarining ilmiy talqinini va bu bilan bevosita bog'liq bo'lgan tilimiz taraqqiyotining derivatsion muammolarini atroflicha yoritish bugunning eng muhim vazifalardan biridir.

Derivatsiya – zamonaviy tilshunoslikning eng ilg'or yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu jarayon tilning doimiy takomillashuvini ta'minlaydi. Til nafaqat ma'lum bir tilning yaratilishi, balki tilning o'zini o'zi yasashi tomonidan o'rganiladi va bu hodisa hozirgi lingvistika sohasida «derivatsiya» deb atalib, derivatsiya nazariyasi doim tilshunoslar tadqiqotlarining ilmiy va amaliy subyekti bo'lib kelgan.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda shuni ham ta'kidlash joizki, hozirda derivatologiya sohasi tilni turli yo'nalishlarda tadqiq qilyapti. Masalan lingvistik yo'nalish (derivatsiya atamasi ostida til birliklarining shakllanishi tushuniladi), kognitiv yo'nalish (til bu doimiy kuzatuvdagi uzluksiz jarayon, fikrni ifodalashning eng muhim vositasi sifatida) va psixologik yo'nalish (bunda derivatsiya til birliklarini faollashtiruvchi jarayon sifatida ko'zga ko'rinmas, mavhum tarzda ifodalanadi). Ko'rinadiki, derivatsion nazariya bugungi kunga qadar lingvistik doirada eng talabi kuchli nazariyalardan biridir, chunki mazkur yo'nalish Y. S. Kubryakova ta'biri bn aytganda, tilshunoslik rivojlanishining zamonaviy tamoyillariga to'liq javob beradi [1].

Aslida «derivatsiya» tushunchasi tilshunoslikda mohiyatan yangi emas. Chunki bu tushuncha soʻz yasalishi maʼnosida ovrupa tilshunosligida koʻp yillardan beri qoʻllanilib kelmoqda. Biroq tilshunoslikda «sintaktik derivatsiya» tushunchasi ham mavjud boʻlib, bu nazariya Praga tilshunoslik maktabining yirik namoyandalaridan biri Yeji Kurilovich tomonidan ilmiy asoslab berildi. Uning 1936 yilda fransuz tilida chop etilgan «Leksik derivatsiya va sintaktik derivatsiya» nomli maqolasida «sintaktik derivatsiya» tushunchasi birinchi bor qoʻllanilgan edi.[2] Biroq tilshunoslik fanida sintaktik derivatsiya tushunchasining faol qoʻllanilishi 60-yillardan boshlandi. Boshqacha aytganda, Yeji Kurilovichning yuqorida eslatib oʻtilgan maqolasi 1962 - yilda rus tilida nashr etilgandan soʻng, dastlab rus tilshunosligida bu sohada ilmiy-tadqiqot ishlari boshlandi va vaqt oʻtishi bilan yirik monografik tadqiqotlar ham bajarildi.

Sintaktik derivatsiya hodisasi 20-asrning ikkinchi yarmida koʻp spektrli tadqiqot mavzusi boʻlgan, ammo hozir ham sintaktik derivatsiyani oʻrganish tildagi soʻz shakllanishining dolzarb muammolaridan biri boʻlib qolmoqda. Y.Kurilovich sintaktik derivatsiya tushunchasini birinchi boʻlib asoslagan boʻlsa ham, uning taʼlimotida mazkur lingvistik hodisa ancha tor maʼnoda taʼriflanadi. Boshqacha aytganda, Y.Kurilovich sintaktik derivatsiyani transformatsiya tushunchasidan qariyb farqlamaydi. Shu bois hosila (derivat) qurilmani funksiyalari oʻzgargan, biroq leksik maʼnolari saqlangan forma tarzida izohlaydi.[2]

Sintaktik derivatsiya soʻz yasovchi transpozitsiyaning eng mahsuldor turi boʻlib, u yasovchi soʻzning kategorik maʼnosi bilan hosila turkum maʼnosi oʻrtasidagi ziddiyatni aks ettiradi. Sintaktik derivatsiya koʻp bora rus va oʻzbek tilshunos olimlarining diqqatini tortgan. Sintaktik derivatsiya hodisasining umumiy, asosiy tavsifi doirasida E.S.Kubryakova, E.A. Zemskaya, O.P. Ermakova, A.N. Tixonov, O.M. Kim kabi nufuzli rus tilshunoslarning tadqiqotlarini; N.K. Turniyozov, U.N.Boboyev, A.A. G'afforov, B.N.Turniyozov, F.T. Shodiyev, Sh.Turniyozova kabi oʻzbek tilshunos olimlarining derivatsiya muammolari tadqiqiga bagʻishlangan dissertatsion ishlarini koʻrsatishimiz mumkin.

Rus tilshunoslari I.P.Raspopov, S.N.Sichyova, L.N.Murzin kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida sintaktik derivatsiya tushunchasining Kurilovich taʼlimoti asosida yoritilganini koʻramiz. Xususan, rus tilshunoslari I.P.Raspopov va S.N.Sichyovalar sintaktik derivatsiya deganda, maʼlum bir gap ikkinchisining asosida shakllanishini tushunadilar[3]. Koʻrinadiki, bu oʻrinda ham sintaktik derivatsiya transformatsiyadan mutlaqo farqlanmaydi. V.S.Xrakovskiy tadqiqotlarida sintaktik derivatsiya va transformatsiya keskin farqlanadi. Olim bu haqda quyidagilarni yozadi: «Agar transformatsion munosabat zamirida maʼlum bir semantik tushunchaning tilda qanday sintaktik vositalar bilan ifodalanishi yotsa, derivatsion munosabatda maʼlum bir semantik tushunchadan ikkinchi semantik tushunchaga oʻtish nazarda tutiladi».

V.S.Xrakovskiyning talqinida sintaktik derivatsiya natijasida hosil boʻlgan derivat (hosila) oldingi (unga asos boʻlgan) gapdan grammatik strukturasiga hamda mazmuniga koʻra keskin farq qilishi lozim. Nazarimizda, V.S.Xrakovskiy sintaktik derivatsiyaning taʼsir doirasini ancha tor tushunadi. Chunki tayanch va hosila gaplar oʻrtasidagi derivatsion munosabat bir xil leksik komponentlarga asoslanishi ham mumkin.

Shu o'rinda sintaktik derivatsiya faqat gapga emas, balki soʻz birikmalariga ham daxldor ekanligini aytib o'tishimiz lozimki, L.N.Murzin ham o'zining dastlabki mulohazalarida sintaktik derivatsiyani faqat gapga taalluqli deb talqin etadi. Shu bois sintaktik derivatsiyaning boshlang'ich nuqtasi ham, oxirgi nuqtasi ham gap ekanligi ta'kidlanadi.[5] Ammo L.N.Murzinning keyingi ishlarida sintaktik derivatsiya soʻz birikmalaridan boshlab matngacha boʻlgan hududda faol ekanligi qayd etiladi. Bundan tashqari, yana sintaktik derivatsiyaning gapga tegishli boʻlgan kontaminatsiya, konversiya va kompressiya singari usullari ham ko'rsatiladiki, bu olimning sintaktik derivatsiya bobida erishgan so'nggi yutuqlaridan dalolat beradi.

S.D.Katsnelson ham sintaktik derivatsiya xususida ancha teran fikrlar bildiradi: «Agar til strukturasining boshqa sathlarida derivatsiya tushunchasi paradigmatic qator bilan bog'liq bo'lib statik xarakter kasb etsa, sintaksisda u sintagmatik qator mexanizmi tarzida, til unsurlarini sintagmatik qatorda kengaytiruvchi vosita sifatida dinamik xarakterlidir».[6] S.D.Katsnelson sintaktik derivatsiyani statik xarakterli emas, balki dinamik xarakterli ekanligini alohida ta'kidlaydi va eng muhimi, sintaktik derivatsiyani til unsurlarining (belgilarining) nutqqa ko'chirilishi jarayonini taqozo etuvchi alohida struktura tarzida talqin etadi.

S.D.Katsnelson, yuqoridagilardan tashqari, leksik derivatsiya soʻzning paradigmatic qatordagi o'rnini belgilab berishini, sintaktik derivatsiya esa har safar yangi-yangi hosila gaplarni shakllantirishini to'g'ri ko'rsatadi. Ko'rinadiki, S.D.Katsnelson sintaktik derivatsiya tilni nutqqa ko'chiruvchi asosiy mexanizmlardan biri ekanligini, uning lug'aviy ma'nosi biror tayanch struktura asoslanuvchi hosila strukturani taqozo etishini ilmiy asosli tarzda talqin etadi.

Sintaktik derivatsiya keng ko'lamlidir. Qo'shma gaplarning sintaktik derivatsiyasi sodda gaplarnikidan keskin farq qiladi. Sodda gaplar derivatsiyasi V.S.Xrakovskiy ta'limoti asosida o'rganilishi mumkin. Murakkab sintaktik qurilmalar sintaktik derivatsiyasi esa masalaga o'zgacharoq yondashishni taqozo etadi. Katsnelson to'g'ri ta'kidlaganidek, derivatsiya sintaksisda sintagmatik mexanizm tarzida kelib, lisoniy elementlarning sintagmatik qatordagi shakllanishini anglatadi. [6]

Sintaktik derivatsiya nazariyasi masalalari O.I.Maskalskaya tadqiqotlarida ham mukammal ishlangan. Muallif hosila qurilmalarning transformatsiya yordamida shakllanishi masalaning bir tomonini aks ettirishini, gap shaklining kengayishi sintaktik derivatsiyaning boshqa ko'rinishi ekanligini uqtiradi. [7] Sintaktik derivatsiya o'z mohiyatiga ko'ra transformatsiya bn uzviy bog'liq bo'lib, ularning har ikkalasi ham dinamik xarakterga ega. Ammo derivatsiya keng ko'lamlidir va shu bois, transformatsiya ko'p hollarda derivatsiyaning usullaridan biri sifatida qo'llaniladi.

Har qanday sintaktik jarayonning vujudga kelishi uchun nutq muhiti asosiy omillardan biri sanaladi. Bu jarayonda so'zlovchi tayyor holdagi sintaktik qurilmalarni tahlil etish bilan emas, balki yangi strukturalarni yaratish bilan mashg'ul bo'ladi. Ana shu yangi strukturalar aksariyat hollarda sintaktik derivatsiya mahsulini taqozo etadi.[8] Chunki sintaktik derivatsiya - bu sintagmatik qator bo'ylab ma'lum bir qurilma asosida yangi qurilmaning hosil bo'lishidir. [9]

Yuqoridagilar bilan bir qatorda shuni ham aytish kerakki, «sintaktik derivatsiya» tushunchasi o'zbek tilshunosligida ham hozirgacha munozarali mavzulardan hisoblanadi. Xususan, sintaktik derivatsiya nazariyasiga o'zbek olimi N.K.Turniyozov quyidagicha yuksak ta'rif bergan: «Sintaktik derivatsiya-bu sintagmatik qator bo'ylab ma'lum bir qurilma asosida yangi sintaktik qurilma hosil qilinishidir». [10] Bu jarayonda berilgan obyekt tayanch struktura (yadernaya struktura) hisoblanadi, uning asosida yangidan shakllangan struktura esa hosila (derivat) deb ataladi. Hosila struktura tayanch struktura shaklining kengayishi, torayishi yoki uning doirasida ma'lum transformatsion o'zgarishlar sodir etilishini taqozo qilishi mumkin. Derivatsion hodisalarning til va nutqqa mansub tiplarini tafovutlash zarurati masalasi hozirga qadar muammoli. Bu masalaning yechimiga leksik va sintaktik derivatsiya terminlari yordamida erishib kelinayotgani ham ma'lum. Xususan, o'zbek tilshunos olimi H. Xayrullayev sintaktik derivatsiya hodisasi asosida yuzaga keladigan mahsullarning nutqqa daxldorligi haqidagi qarashlarni o'zining tadqiqotlari orqali mustahkamlagan.[11] Shunday bo'lishiga qaramasdan, hanuzgacha sintaktik derivatsiya terminini an'anaviy tarzda talqin etilishi, ya'ni bu terminni leksik derivatsiya jarayonida kuzatiladigan funksional o'zgarishga nisbatan qo'llanilishi bugunga qadar davom etmoqda.

Sintaktik derivatsiya leksik derivatsiyadan keskin farq qiladi, zotan, leksik derivatsiya so'z yasallishini taqozo etadi va derivatsion munosabatdagi til belgilari bunda statik xarakterda bo'ladi. Sintaktik derivatsiya esa so'z birikmalari, gap va matnga taalluqli bo'lib, u morfologik unsurlarning dinamik xarakterdagi aloqasini ko'rsatadi. Lekin, shunday bo'lishiga qaramay, derivatsiyaning bu ikki turi o'rtasida ma'lum darajada bog'lanish ham mavjuddir. Masalan, nutqda sifatdash shaklini yasovchi -gan affiksi bir paytning o'zida ham leksik derivatsiyani, ham sintaktik derivatsiyani sodir etuvchi asosiy morfologik vosita bo'la oladi. Bunga ravishdash yasovchi -i (-ib) affiksi ham misol bo'lishi mumkin.

Shuni ham aytish lozimki, derivatsiyaning har qanday turini ham (leksik, semantik, sintaktik) tahlil etganimizda quyidagi terminlardan foydalanamiz: operator, operand, hosila (derivat).

Operator sintaktik derivatsiyani vujudga keltiruvchi asosiy unsur sanaladi. Uning ishtirokisiz derivatsion jarayon yaratuvchilik kuchini yo'qotadi. Operator hosila struktura tarkibiga tashqaridan kiritiladi (derivatsion jarayonni tashkil etayotgan til unsurlari tarkibida u mavjud bo'lmaydi) va shu paytning o'zidan boshlab derivatsiyaning mutlaq hokim unsuri bo'lib qoladi. Operand bu at xomashyosi, til materialini sanaladi. Hosila (derivat) derivatsiyaning natijasini taqozo etadi. Ya'ni, derivatsiya qanday asos bilan bog'liq holda voqealanmasin, uning zahirida ma'lum bir asos struktura bazasida hosila strukturani vujudga keltirish maqsadi o'z ifodasini topadi. Ana shunga monand ravishda, derivatsion struktura orqali operand+operator=derivat modeliga xos tipik jarayon yuzaga keladi.[12]

Xulosa o'rnida sintaktik derivatsiya nazariyasiga murojaat etishimizning asosiy sababi, mazkur nazariya til unsurlarining nutqqa ko'chirilishi muammosi bilan chambarchas bog'liq ekanligidir. Tilning nutqqa ko'chirilishi, albatta, nafaqat jahon, balki hozirgi o'zbek tilshunosligining o'ta dolzarb masalalaridan biridir. Zotan, bu jarayon tilning barcha sathlari unsurlarining kesishish nuqtasi va ularga so'zlovchi munosabatini taqozo etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Кубрякова Е.С. Когнитивные аспекты процессов деривации. – Пермь, 1998.- С.45.
2. Курилович Е. Деривация лексическая и синтаксическая: К теории частей речи // Очерки по лингвистике: Сборник статей. М., 1962.
3. Распопов, И. П. Синтаксическая деривация и синтаксическая синонимия / И. П. Распопов, С. Н. Сычева // Науч. Докл. Высш. Школы. Серия филологических наук. – 1974. - № 3. – С. 61-74.
4. Храковский, В. С. Трансформация и деривация / В. С. Храковский // Проблемы структурной лингвистики. – М. : Наука, 1973. – 599 с.
5. Мурзин, Л. Н. Синтаксическая деривация : анализ производных предложений русского языка : пособие по спецкурсу / Л. Н. Мурзин. – Пермь : ПГУ, 1974. – 170 с
6. Кацнельсон С. Д. Общее и типологическое языкознание / Л., Наука, 1986. – 131 с
7. Мокальская О.И. Синтаксическая парадигматика и синтаксическая деривация / Проблемы общего и Германского языкознания, - М, МГУ. 1978,- 73 с
8. Хомский Н. Синтаксические структуры// Новое в лингвистике -М.: Иностранная литература, 1962, - 455с
9. Турниязов Н.К. Принципы формирования синтаксической структуры сложноподчинённого предложения в узбекском языке/ - Ташкент.: Укитувчи. – 1985, - с22
10. Turniyozov N.K. O'zbek tili derivatsion sintaksisiga kirish. – Samarqand, 1955, 55b
11. Xayrullayev X.Z. Nutq birliklarining pog'onali munosabati. Samarqand, SamDChTI, - 2008, - 73 b
12. Turniyozov N., Turniyozova K., Xayrullayev X. Struktur sintaksis asoslari. – Toshkent.: «Fan», 2009, - 131 b